



TELEGRAM PLATFORMASIDA NARKOTIK VOSITALAR TARQATILISHIGA QARSHI KURASH

Matyozov Sh.O.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21031434>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 27-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 29-iyun 2026 yil

KEY WORDS

Telegram, narkosavdo, kladman tizimi, raqamli dalillar, messenjer, drop, kriptovalyuta, O'RQ-1003, O'zbekiston, huquqiy kurash, blockchain analitika..

ABSTRACT

Ushbu maqolada Telegram messenjeri orqali narkotik vositalar tarqatilishiga qarshi kurashning huquqiy va texnik jihatlarini tahlil qilinadi. Platformaning texnik xususiyatlari, kladman tizimining ierarxik tuzilmasi, raqamli dalillarni to'plash muammolari va xalqaro tajriba — ayniqsa Germaniya tajribasi — ko'rib chiqiladi. 2024 yilda O'zbekistonda aniqlangan Telegram kanallar statistikasi, O'RQ-1003-son Qonunning ahamiyati va profilaktik yondashuv bilan kurashni uyg'unlashtirish zaruriyati asoslab beriladi.

Telegram messenjer so'nggi yillarda giyohvand moddalarni tarqatishning asosiy raqamli kanallaridan biriga aylanib qoldi. Platforma 900 milliondan ortiq faol foydalanuvchisi bilan eng keng tarqalgan messenjerlardan biri hisoblanadi. Rossiyalik kriminolog S.I.Zemsova ta'kidlaganidek, "kiberhududda sodir etilgan jinoyatlarning aksariyati muayyan ierarxiyadagi ishtirokchilardan iborat tashkillashgan jinoiy shakllar tomonidan sodir etiladi"¹.

2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish Departament (KJQKB) tomonidan aniqlangan giyohvand moddalari bilan bog'liq jinoiy ishlarning 60 foizidan ortiq qismi Telegram orqali amalga oshirilgan². AQSH kriminologi C.Brenner ta'kidlaganidek, "zamonaviy kiber jinoyatchi endi yolg'iz pirat emas, balki jiddiy jinoiy biznes-jarayonning bir bo'g'ini"³. Bu ta'rif Telegram orqali ishlayotgan narkosavdo tarmoqlari uchun ham to'liq to'g'ri keladi.

Telegram dasturining texnik xususiyatlari uni narkosavdochilar uchun jozibali qiladi: shifrlangan xabarlar, o'z-o'zini yo'q qiladigan kontent, bot texnologiyalari orqali avtomatlashtirilgan to'lov va manzil yuborish tizimlari. Bu xususiyatlar birgalikda narkosavdo tarmoqlarining qonuniy platformadan foydalanib qonunsiz faoliyat yuritishiga imkon yaratadi.

¹ Земсова С.И. Дроп как инструмент скрытия следов киберпреступлений // Криминалистика. – 2022. – № 2. – С. 35.

² Toshkent shahar IIBB KJQKB. 2024-yilgi faoliyat hisoboti. – Toshkent, 2024. – B. 8.

³ Brenner C. Cybercrime and the Law. – Boston: Northeastern University Press, 2012. – P. 67.

O'zbek huquqshunosi D.X.Fayziyeva ta'kidlaganidek, "vishing sodir etishda kiber jinoyatchilar ijtimoiy injeneriya usullari, shuningdek VPN-server va VoIP shlyuzlaridan foydalanadilar"⁴. Xuddi shu usullar Telegram asosidagi narkosavdoda ham qo'llaniladi.

"Kladman" tizimi MDH mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, uning ierarxiyasida quyidagi rollar mavjud: tashkilotchi, "fasovshik" (moddalarni bo'luvchi), kladman (yashiruvchi), "vozvrater" (aldangan xaridorlardan qayta pul undiruvchi), "vbiver" (kartadan pul yechuvchi) va "skammerlar". S.V.Maksimov va V.S.Ovchinskiy bu tizimni o'rganib, "narkotik aylanmasi mexanizmidagi ishtirokchilarni tashkilotchilar, ishlab chiqaruvchilar, ekspeditorlar, yirik va mayda ulgurji savdogarlar, kassachilar, pul yuvuvchilar sifatida ajratish mumkin" degan xulosaga kelganlar⁵.

Xalqaro tajribaga tayanadigan bo'lsak, Germaniya 2023-yilda Telegram bilan rasmiy shartnoma tuzib, noqonuniy kontentni olib tashlash mexanizmini yo'lga qo'ydi. 2024-yil avgustida Telegram asoschisi Pavel Durov Fransiyada hibsga olinishi platformaning siyosatida ma'lum o'zgarishlarga olib keldi — Telegram huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ma'lumot berishni kengaytirdi⁶. Bir necha yuz ming noqonuniy kanallar bloklandi.

Gollandiyalik kriminolog M.Makguayer ta'kidlaganidek, "jinoiy tashkilotlar moslashish qobiliyatiga ega — ular qurolsizlantirish urinishlariga har doim yangi texnik va tashkiliy echimlar topib javob beradi"⁷. Bu Telegram orqali narkosavdo uchun ham o'rinalidir: bloklangan kanallar o'rniga darhol yangilari yaratilmoqda.

Mamlakatimizdagi holatga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2024-yilda Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti 500 dan ortiq Telegram kanal va guruhlarini aniqladi⁸. Mutaxassis R.V.Amelin ta'kidlaganidek, "kompyuter jinoyatlarining 85 dan 97 foizigacha bo'lgan qismi aniqlanmaydi yoki huquq-tartibot idoralariga xabar qilinmaydi"⁹. 2024-yil 21-noyabrda qabul qilingan O'RQ -1003-son Qonun¹⁰ raqamli dalillar bilan ishlash asosini yaratdi. Biroq Telegram mahalliy organlarga ma'lumot bermaslik siyosatini hali ham qisman saqlab qolmoqda.

Psixolog Sh.Raximova ta'kidlaganidek, profilaktik axborotni ham aynan yoshlar ko'p vaqt o'tkazadigan Telegram muhitida tarqatish zarur¹¹. Bu ikki yo'nalishli yondashuv — bir tomondan zararli kanallarni bloklash, ikkinchi tomondan yoshlarga foydali kontent taqdim etish — eng samarali strategiya hisoblanadi.

⁴ Fayziyeva D.X. Raqamli muhitda jinoyatlarni tergov qilish metodologiyasi // Huquq va jamiyat. – 2023. – № 1. – B. 73.

⁵ Максимов С.В., Овчинский В.С. Организованная преступность в сфере наркотиков. – Москва: Инфра-М, 2021. – С. 112.

⁶ Europol. Internet Organised Crime Threat Assessment 2023. – P. 45.

⁷ Makguayer M. Organized Crime and Technology Adaptation // Criminology. – 2022. – Vol. 60, No. 2. – P. 234.

⁹ Amelin R.V. Latentnost' kiberprestupleniy // Pravo i bezopasnost'. – 2021. – № 3. – S. 44.

¹⁰ "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2024-yil 21-noyabrda O'RQ -1003-son Qonuni. – Toshkent, 2024.

¹¹ Raximova Sh. Yoshlarga mo'ljallangan raqamli profilaktika. – 2023. – B. 59.

Keltirilgan muammolarga doir taklif va tavsiyalar Birinchi tavsiya — Telegram bilan rasmiy diplomatik va huquqiy muloqotni yo'lga qo'yish. Germaniya tajribasidan foydalanib, O'zbekiston ham Telegram bilan noqonuniy kontentni olib tashlash bo'yicha rasmiy shartnoma imzolashi zarur.

Ikkinchi tavsiya — O'zbekiston Jinoyat kodeksiga 243(1)-modda kiritish: drop faoliyatini kriminalizatsiya qilish.

Uchinchi tavsiya — blockchain analitik imkoniyatlarini kuchaytirish¹². To'rtinchi tavsiya — profilaktiv choralar bilan uyg'unlashtirish: giyohvandlarga yordam ko'rsatuvchi tizimlarga murojaat qilishni rag'batlantirish orqali talabni kamaytirish. A.P.Suxodolov ta'kidlaganidek, kurash ham raqamli bo'lishi kerak¹³.

2025-yil 22-yanvardagi PQ-17-son qaror¹⁴ bo'yicha IIV Akademiyasida yangi yo'nalish ochilishi kadrlar muammosini hal etishda muhim qadam. FATF standartlari¹⁵ va "Raqamli O'zbekiston-2030"¹⁶ strategiyasi kompleks kurashning huquqiy va tashkiliy asosini yaratadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Telegram platformasida narkosavdoga qarshi kurash texnologik, huquqiy, diplomatik va profilaktik choralarning birlashishini talab etadi. Xalqaro hamkorlik, platformalar bilan muloqot, blockchain kriminalistikasi va yoshlar uchun profilaktiv kontent — bu to'rtta yo'nalishni parallel olib borish eng samarali strategiya hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Земсова С.И. Дроп как инструмент скрытия следов киберпреступлений // Криминалистика. – 2022. – № 2. – С. 34–42.
2. Brenner C. Cybercrime and the Law. – Boston: Northeastern University Press, 2012. – 356 p.
3. Fayziyeva D.X. Raqamli muhitda jinoyatlarni tergov qilish metodologiyasi // Huquq va jamiyat. – 2023. – № 1. – B. 70–84.
4. Максимов С.В., Овчинский В.С. Организованная преступность в сфере наркотиков. – Москва: Инфра-М, 2021. – 289 с.
5. Toshkent shahar IIBB Kiberjinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi. 2024-yilgi faoliyat hisoboti. – Toshkent, 2024.
6. Makguayer M. Organized Crime and Technology Adaptation // Criminology. – 2022. – Vol. 60, No. 2. – P. 228–248.
7. Амелин Р.В. Латентность киберпреступлений // Право и безопасность. – 2021. – № 3. – С. 40–50.
8. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O'RQ-1003-son Qonuni. – Toshkent, 2024.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi PP-17-son qarori. – Toshkent, 2025.

¹² Chainalysis. Crypto Crime Report 2023. – P. 55.

¹³ Suxodolov A.P. Narkotrafik v tsifrovuyu epoxu. – S. 145.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi PP-17-son qarori. – Toshkent, 2025.

¹⁵ FATF. Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers. – Paris: FATF, 2021. – P. 30.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi. – Toshkent, 2020.

10. Europol. Internet Organised Crime Threat Assessment (IOCTA) 2023. – The Hague: Europol, 2023. – 84 p.
11. Chainalysis. Crypto Crime Report 2023. – New York: Chainalysis, 2023. – 110 p.
12. Амелин Р.В. Латентность киберпреступление // Право и безопасность. – 2021. – № 3. – С. 40–50.
13. Raximova Sh. Yoshlarga mo'ljallangan raqamli profilaktika // Psixologiya va ijtimoiy ish. – 2023. – № 2. – B. 55–62.
14. FATF. Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers. – Paris: FATF, 2021. – 104 p.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi. – Toshkent, 2020.

